SMART HAND CREAM TARKIBINI ISHLAB CHIQISH

Norqulova Husniya Murodjon qizi
Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti 4-kurs talabasi
Tel.: (77) 296-80-76
e-mail: husniyanorqulova8@gmail.com

Husanova Madina Saydullo qizi
Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabasi
Tel.: (50) 508-61-06
E-mail: madina.husanova777@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22525878

Dolzarbligi. Hozirgi kunda terini himoya va regeneratsiya qiluvchi kosmetik vositalarga talab ortib bormoqda. Ayniqsa qo‘l terisi tashqi muhit omillari – sovuq va issiq harorat, kimyoviy moddalar va ultrabinafsha nurlanish ta’sirida tez zararlanadi. Bu holat terining qurishi, yorilishi va elastikligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli tabiiy biologik faol moddalar asosida samarali va xavfsiz qo‘l kremlarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi. “Smart Hand Cream” tarkibidagi aloe vera ekstraktlari terining namlik balansini tiklash, yallig‘lanishni kamaytirish hamda himoya funksiyasini kuchaytirish xususiyatiga ega bo’lib, ushbu mahsulotning farmatsevtik va kosmetologik ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, tabiiy komponentlarga asoslangan kosmetik mahsulotlar sintetik moddalar saqlovchi vositalarga nisbatan xavfsizligi va biologik mosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy kosmetologiyada ekologik toza va teriga nojo‘ya ta’siri kam bo‘lgan preparatlarga qiziqish ortib bormoqda. Aloe vera ekstrakti tarkibidagi polisaxaridlar va vitaminlar teri hujayralarining regeneratsiyasini tezlashtiradi va namlikni uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Moychechak (ramashka, lotincha: Matricária) — asterdoshlar oilasiga mansub, tarkibida apigenin, quercetin kabi foydali polifenollar mavjud dorivor va kosmetik bir yillik o‘simlik. U yallig‘lanishga qarshi, tinchlantiruvchi, oshqozon-ichak tizimini yaxshilovchi va teri kasalliklarini davolovchi xususiyatlarga ega bo‘lib, tibbiyot hamda kosmetologiyada keng qo‘llaniladi. Asosiy foydali xususiyatlari: Hazm qilish tizimi: Gastrit, kolit, oshqozon og‘irligi va shamollashni davolaydi, gazni kamaytiradi. Yallig‘lanishga qarshi: Tomoq og‘rig‘i (tonzillit), SARS va grippda, shuningdek, ko‘z shilliq qavatining yallig‘lanishida samarali. Tinchlantiruvchi: Uyqusizlikni yengish va asab tizimini tinchlantirish uchun choy sifatida ichiladi. Kosmetologiya: Teri yallig‘lanishlarini (akne) kamaytiradi, soch to‘kilishini davolaydi va terini yumshatadi. Ginekologiya: Ayollar organizmi uchun foydali, yallig‘lanishlarni kamaytiradi. Qo‘l kremlarining fizik-kimyoviy barqarorligini ta’minlash esa ularning samaradorligi va saqlanish muddatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan “Smart Hand Cream” tarkibi va texnologiyasini ilmiy asosda ishlab chiqish farmatsevtika hamda kosmetologiya uchun amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tabiiy komponentlarga asoslangan “Smart Hand Cream” qo‘l kremi tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan barcha asoslar ichida asal ari mumi asosidagi krem namunasi eng yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Ushbu asos optimal yopishqoqlikni ta’minlab, krem terida uzoq vaqt saqlanishiga imkon yaratdi. Asalari mumi asosida tayyorlangan krem yuqori bioadzesivlik xususiyatiga ega bo‘lib, faol moddalarning mahalliy ta’sirini uzaytirdi. Aloe vera va romashka ekstrakti ushbu tizimda bir tekis taqsimlandi hamda barqarorligi ta’minlandi. NaKMS 4% li asos va emulsion asoslardan tayyorlangan krem nisbatan quyuqlashdi.

Kollagen 5%asosda tayyorlangan kremda suyuqlanish kuzatildi.

Asalari mumi va vazelin moyi asosida tayyorlangan kremda o’zgarish kuzatilmadi. (qatlamlarga ajralmadi.) Tajribaning birinchi bosqichidan so’ng 1, 3, 4 - tarkibli kremlar beqarorligi tufayli keying tekshiruvlar obyektidan chiqarildi. Keying izlanishlar uchun 2 tarkibli krem tarkibli tanlab olindi. Qo’l

uchun krem tarkibi: Aloe vera ekstrakti – 5,0 Romashka ekstrakti – 10,0 Asalari mumi – 4,0 Vazelin moyi – 4,0 etib belgilandi.

Xulosa. “Smart Hand Cream” tabiiy komponentlarga asoslangan krem tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi.